



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)



ISSN: 2992-8982 <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA	34
Abdovaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUHLARI	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
КАРБОНОВЫЕ КРЕДИТЫ В АГРАРНОМ СЕКТОРЕ КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	61
Абдуллаева Зайнаб Руслановна	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI	66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI	73
Ravshanjon Azimovich	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
Davidxodjayev Oybek Obidovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI	91
Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI	96
Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY	100
Erkin Temirovich Shodiev	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT	105
Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIVALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	
AHOLI ISTE'MOL MADANIYATI VA MILLIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	118
Rustamov Sherov Oblokulovich	



ISHLAB CHIQRARISH OMILLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: KOBБ-DOUGLAS MODELII ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL	123
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQUINDILARNI KOMPLEKS BOSHQARISH	129
Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
Шафикова Луиза, Ойбек Камилов	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА	150
Омонтурдиева Диёра	
YER VA SUV RESURLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH.....	155
Matkarimov Mansur	
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEKANIZMINING DASTAKLARI	161
Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	167
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
KAMBAG'ALLIKNI MONETAR VA KO'P O'LCHOVLI BAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O'SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH	173
Sotiboldiyev Asadbek Hasan o'g'li	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQRARISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	179
Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o'g'li	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	192
Ashurova Sitara Xusnitdin qizi	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	197
Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов	
JAHON ME'MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li	



JAHON ME'MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR

Qilichov Muhiddin Husniddin o'g'li

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi doktoranti,

Buxoro davlat universiteti

E-mail: m.h.qilichov@buxdu.uz

ORCID: 0000-0001-5107-4876

Annotatsiya. Maqolada jahon me'moriy merosidan turizmda foydalanishning hozirgi holati, muammolari va yechimlari tahlil qilingan. Tahliliy-taqqoslash, kontent tahlil va SWOT-tahlil usullari qo'llanilgan. Beshta mamlakat — Italiya, Peru, Kambodja, Turkiya va O'zbekiston tajribasi taqqoslangan. Natijalar me'moriy meros obyektlari haddan tashqari turizm, konservatsiya va tijoratlashtirish o'rtasidagi ziddiyatlar, iqlim o'zgarishi hamda moliyalashtirish tanqisligi kabi muammolarga duch kelayotganini ko'rsatdi. Tashish sig'imi tizimini joriy etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, mahalliy aholini jalb etish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: me'moriy meros, madaniy turizm, barqaror turizm, UNESCO Jahon merosi, merosni muhofaza qilish, turizm boshqaruvi.

Abstract. This article analyzes the current state of utilizing global architectural heritage in tourism, existing challenges, and applied solutions. Analytical-comparative, content analysis, and SWOT analysis methods were employed. The experiences of five countries — Italy, Peru, Cambodia, Turkey, and Uzbekistan — were compared. The findings reveal that heritage sites face serious threats, including overtourism, conflicts between conservation and commercialization, climate change impacts, and funding shortages. Practical recommendations were developed for implementing carrying-capacity systems, adopting digital technologies, engaging local communities, and strengthening international cooperation.

Key words: architectural heritage, cultural tourism, sustainable tourism, UNESCO World Heritage, heritage conservation, tourism management.

Аннотация. В статье проанализированы современное состояние, проблемы и пути решения использования объектов мирового архитектурного наследия в туризме. В исследовании применены методы аналитического сравнения, контент-анализа и SWOT-анализа. Проведено сравнительное изучение опыта пяти стран — Италии, Перу, Камбоджи, Турции и Узбекистана. Результаты показали, что объекты архитектурного наследия сталкиваются с такими проблемами, как чрезмерный туризм, противоречия между консервацией и коммерциализацией, изменение климата, а также недостаток финансирования. Разработаны предложения по внедрению системы управления пропускной способностью, использованию цифровых технологий, вовлечению местного населения и укреплению международного сотрудничества.

Ключевые слова: архитектурное наследие, культурный туризм, устойчивый туризм, Всемирное наследие UNESCO, охрана наследия, управление туризмом.



KIRISH

Me'moriy meros insoniyatning tarixiy xotirasi, madaniy identiteti hamda sivilizatsion rivojlanish bosqichlarini o'zida mujassam etgan moddiy va nomoddiy boylik hisoblanadi. Ushbu meros nafaqat o'tmish haqida guvohlik beruvchi tarixiy manba, balki zamonaviy jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy qiymatga ega bo'lgan muhim resurs sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois me'moriy meros obyektlaridan turizm sohasida samarali foydalanish masalasi so'nggi o'n yilliklarda xalqaro miqyosda dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biriga aylangan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, ilm-fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti — UNESCO tomonidan 1972–yilda qabul qilingan “Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risida”gi Konvensiya me'moriy merosni global miqyosda e'tirof etish hamda muhofaza qilishning muhim huquqiy asosini yaratdi [1]. Mazkur Konvensiya doirasida bugungi kunga qadar 168 dan ortiq mamlakatdagi 1199 dan ziyod obyekt Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, ularning katta qismi madaniy va me'moriy meros obyektlari hisoblanadi. Ushbu obyektlar har yili millionlab sayyohlarni o'ziga jalb etib, mahalliy hamda milliy iqtisodiyot rivojiga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Me'moriy merosdan turizmga foydalanishning dolzarbligi bir qator omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, jahon turizmi hajmining barqaror o'sishi me'moriy meros obyektlariga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib, ularning turistik salohiyatidan yanada samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ikkinchidan, iqlim o'zgarishi va urbanizatsiya jarayonlari tarixiy obyektlarni asrab-avaylash hamda ularni kelajak avlodlarga yetkazish masalasining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Uchinchidan, COVID–19 pandemiyasi turizm tizimining moslashuvchanligini kuchaytirish zaruratini ko'rsatib berdi hamda me'moriy meros obyektlaridan foydalanishda yangi yondashuv va strategiyalarni ishlab chiqishga turtki bo'ldi. To'rtinchidan, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi me'moriy merosni targ'ib qilish, boshqarish va muhofaza etishning zamonaviy imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Tadqiqotning maqsadi — jahon me'moriy merosidan turizmga foydalanishning hozirgi holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash, qo'llanilayotgan yechimlarni baholash hamda istiqbolli taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi tadqiqot savollari belgilab olindi:

1. Jahon miqyosida me'moriy merosdan turizm sohasida qanday foydalanilmoqda va uning iqtisodiy ahamiyati qanday?
2. Me'moriy meros obyektlaridan turizmga foydalanishda qanday asosiy muammolar kuzatilmoqda?
3. Turli mamlakatlarda ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha qanday yechim va yondashuvlar qo'llanilmoqda?
4. Me'moriy merosni muhofaza qilish hamda turizmni barqaror rivojlantirish uchun qanday istiqbolli takliflarni ilgari surish mumkin?

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon me'moriy merosidan turizmga foydalanish masalalari so'nggi yillarda xalqaro ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. UNESCO tomonidan 1972–yilda qabul qilingan “Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risida”gi Konvensiya me'moriy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan barqaror foydalanishning asosiy huquqiy asosini yaratdi [1]. ICOMOSning Venetsiya xartiyasida esa tarixiy yodgorliklarni asrashda ularning autentikligi va tarixiy muhitini saqlash muhimligi alohida ta'kidlangan [2].

Madaniy meros turizmi nazariy jihatdan Timothy tomonidan keng tadqiq etilib, unda me'moriy meros obyektlari turizmning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishidagi muhim omil sifatida baholangan [3]. McKercher va du Cros madaniy turizm hamda merosni boshqarish tizimlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilib, turizm oqimining ortishi me'moriy meros obyektlariga bosim kuchaytirishini asoslab bergan [4]. Smith esa merosni faqat iqtisodiy resurs sifatida emas, balki madaniy va ijtimoiy qadriyat sifatida ham baholash zarurligini qayd etgan [7].

Shuningdek, Saarinen barqaror turizm konsepsiyasida mahalliy aholi ishtiroki va ekologik muvozanatni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi [9]. Richardsning tadqiqotlarida esa zamonaviy madaniy turizmning innovatsion va raqamli texnologiyalar bilan uyg'un rivojlanish tendensiyalari yoritilgan [11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda jahon me'moriy merosidan turizm sohasida foydalanishning hozirgi holati, mavjud muammolar hamda qo'llanilayotgan yechimlarni kompleks tarzda o'rganish maqsadida sifatli (kvalitativ) tadqiqot strategiyasi qo'llanildi. Sifatli yondashuvning tanlanishi me'moriy meros va turizm o'rtasidagi munosabatlarning ko'p qirrali, kontekstga bog'liq hamda murakkab tabiati bilan izohlanadi. D.J. Timothy ta'kidlaganidek, madaniy

meros turizmini tadqiq etishda sifatli usullar hodisaning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi [3].

Tadqiqot dizayni

Tadqiqot tahliliy-taqqoslash dizayniga asoslangan bo'lib, unda ikki asosiy yondashuv o'zaro uyg'unlashtirildi. Birinchi yondashuv mavjud ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy hujjatlarni tizimli ravishda tahlil qilishga asoslangan "desk research" usulidan iborat. Ikkinchi yondashuv esa tanlab olingan mamlakatlar tajribasini o'zaro taqqoslashga asoslangan qiyosiy tadqiqot (comparative case study) usulini qamrab oladi. Mazkur dizayn me'moriy merosdan turizmga foydalanishning global tendensiyalarini aniqlash, shuningdek, turli hudud va kontekstlardagi o'xshash hamda farqli jihatlarni ochib berish imkonini yaratadi.

Tadqiqot jarayonida kontent tahlil, SWOT-tahlil hamda qiyosiy tahlil usullaridan kompleks ravishda foydalanildi. Ushbu usullar orqali me'moriy meros obyektlaridan turizmga foydalanishning amaliy holati, mavjud imkoniyatlari va rivojlanish istiqbollari ilmiy jihatdan baholandi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Jahonda me'moriy merosdan turizmga foydalanishning hozirgi holati

Me'moriy meros obyektlari jahon turizmining eng muhim resurslari qatoriga kiradi. UNESCO Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan obyektlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. 2024-yil holatiga ko'ra, mazkur ro'yxatda dunyoning 170 ta davlatida joylashgan 1248 ta obyekt mavjud bo'lib, ulardan 972 tasi madaniy, 235 tasi tabiiy hamda 41 tasi aralash toifaga mansubdir [1].

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, madaniy meros obyektlarining eng katta ulushi Yevropa va Shimoliy Amerika mintaqasiga to'g'ri keladi. Ushbu hududda 490 ta madaniy obyekt mavjud bo'lib, bu umumiy madaniy meros obyektlarining 51,5 foizini tashkil etadi. Afrika mintaqasida esa 61 ta madaniy obyekt qayd etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich umumiy obyektlarning 6,4 foiziga tengdir. Mazkur holat UNESCO tomonidan ham e'tirof etilgan bo'lib, madaniy meros obyektlarining hududiy muvozanatini ta'minlash hamda kamroq vakillikka ega mintaqalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus dasturlar amalga oshirilmoqda [1] (1-rasm).

UNESCO Jahon merosi obyektlarining mintaqalar bo'yicha taqsimoti (2024)




1-rasm. Jahon merosi obyektlarining mintaqalar bo'yicha taqsimoti¹

Jahon turizmining umumiy ko'rsatkichlari ham me'moriy meros bilan bog'liq turizm hajmini baholash uchun muhim kontekst yaratadi. UNWTO ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro turizm COVID-19 pandemiyasidan so'ng jadal tiklanish bosqichini boshdan kechirmoqda. 2-rasmda xalqaro turistlar oqimining yillar kesimidagi dinamikasi keltirilgan (2-rasm).

1 Manba: UNESCO World Heritage Centre, 2024-yil.



Jahon bo'yicha xalqaro turistlar sonining dinamikasi (2019–2025)

2-rasm. Jahon bo'yicha xalqaro turistlar sonining dinamikasi (2019–2025)²

2024–yilda dunyo bo'yicha 1,44 milliard nafar xalqaro turist qayd etilgan bo'lib, bu pandemiyadan oldingi darajaning 99 foiziga teng bo'ldi. 2025–yilda esa xalqaro turistlar soni 1,52 milliard nafarga yetib, pandemiyadan keyingi davr uchun yangi rekord ko'rsatkich qayd etildi. Turizm daromadlari 2024–yilda 1,9 trillion AQSh dollariga yetib, 2019–yilga nisbatan 3 foizga oshdi [10].

UNWTO hisobotlariga ko'ra, madaniy turizm jahon turizmining taxminan 40 foizini tashkil etadi [5]. Me'moriy meros obyektlari esa madaniy turizmning asosiy jalb etuvchi omillaridan biri hisoblanadi. Quyidagi 1–jadvalda tadqiqot uchun tanlangan beshta me'moriy meros obyektining asosiy turizm ko'rsatkichlari keltirilgan (1–jadval).

1-jadval. Tanlangan me'moriy meros obyektlarining turizm ko'rsatkichlari³

Obyekt	Mamlakat	UNESCO ro'yxatiga kiritilgan yil	Yillik tashrifchilar soni (2024)	Kunlik cheklov	Chipta narxi
Venetsiya tarixiy markazi	Italiya	1987–yil	~5,88 mln	Yo'q (€5 kirish to'lovi joriy etilgan)	€5 (kunlik)
Machu Picchu	Peru	1983–yil	~1,5 mln	4 500–5 600	\$52
Angkor Wat	Kambodja	1992–yil	~1,02 mln	Yo'q	\$37 (1 kun)
Registon maydoni	O'zbekiston	2001–yil	~1 mln+	Yo'q	~\$5
Kapadokiya	Turkiya	1985–yil	~3,9 mln	Yo'q	Turli narxlar

Aniqlangan asosiy muammolar

Tadqiqot natijalari asosida me'moriy merosdan turizm sohasida foydalanish bilan bog'liq oltita asosiy muammo aniqlandi. Ushbu muammolar quyida batafsil tahlil qilinadi.

Birinchi muammo — haddan tashqari turizm (overtourism). Mazkur holat, ayniqsa, Venetsiya misolida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shaharga yiliga taxminan 20–30 million nafar sayyoh tashrif buyuradi, holbuki, doimiy aholi soni 50 ming nafardan kamni tashkil etadi. Aholining boshqa hududlarga ko'chib o'tish jarayoni ham davom etmoqda. Jumladan, 2024–yil aprel holatiga ko'ra, Venetsiya aholisi 49 ming nafardan past ko'rsatkichga tushgan. McKercher va du Cros ta'kidlaganidek, me'moriy meros obyektlarida sayyohlar oqimining haddan tashqari ortishi ularning fizik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga, mahalliy aholining yashash muhiti va turmush sifatiga ham bosim o'tkazadi [4].

Ikkinchi muammo — konservatsiya va tijoratlashtirish o'rtasidagi muvozanat masalasi. Me'moriy meros obyektlaridan turizmga foydalanish ularni saqlash uchun qo'shimcha moliyaviy manba yaratadi. Smith o'z tadqiqotida merosni faqat iqtisodiy resurs sifatida emas, balki ijtimoiy va madaniy qadriyat sifatida ham baholash zarurligini ta'kidlagan [7].

² Manba: UNWTO World Tourism Barometer, 2024–2025–yillar.

³ Manba: Rasmiy statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Uchinchi muammo — iqlim o'zgarishi va tabiiy omillarning ta'siri. Venetsiyada suv sathining ko'tarilishi va suv toshqinlari, Angkor Wat majmuasida tropik iqlim ta'sirida tosh materiallarning yemirilishi, Machu Picchuda esa yer siljishlari kabi tabiiy jarayonlar me'moriy meros obyektlarini muhofaza qilish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. ICOMOSning Venetsiya xartiyasida ham tarixiy yodgorliklarni asrashda ekologik va atrof-muhit omillarini inobatga olish muhimligi alohida qayd etilgan [2].

To'rtinchi muammo — mahalliy aholi manfaatlarini turizm boshqaruvi jarayonlariga kengroq integratsiya qilish zarurati. Aas, Ladkin va Fletcher o'z tadqiqotlarida merosni boshqarishda manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlikning muhim ahamiyatini asoslab bergan [8]. Ayrim hududlarda turizm infratuzilmasining jadal rivojlanishi uy-joy bozori va xizmatlar narxiga ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, Venetsiyada qisqa muddatli ijara xizmatlari (Airbnb) ommalashuvi natijasida yashash xarajatlari oshib, bu aholini boshqa hududlarga ko'chishga undayotgan omillardan biriga aylangan.

Beshinchi muammo — moliyalashtirish va boshqaruv tizimlarini yanada takomillashtirish zarurati bilan bog'liq. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda me'moriy meros obyektlarini saqlash, restavratsiya qilish hamda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli imkoniyatlar mavjud bo'lib, ushbu yo'nalishda xalqaro hamkorlik, investitsiyalar va malakali mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Pedersen ta'kidlaganidek, Jahon merosi obyektlarini samarali boshqarishda strategik rejalashtirish, yetarli resurslar hamda professional boshqaruv tizimini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi [6].

Oltinchi muammo — tarixiy muhit va vizual yaxlitlikni asrab-avaylash masalasidir. Me'moriy meros obyektlari atrofida amalga oshirilayotgan yangi qurilish va rekonstruksiya ishlari tarixiy muhit bilan uyg'un holda olib borilishi muhim sanaladi. Jumladan, O'zbekistondagi Shahrisabz shahrida amalga oshirilgan qayta qurish ishlari UNESCO ekspertlari tomonidan tarixiy muhitni saqlash va obyektning madaniy qiymatini yanada mustahkamlash nuqtayi nazaridan muhokama qilingan. Quyidagi 2-jadvalda aniqlangan muammolar va ularning tanlangan obyektlarda namoyon bo'lish darajasi umumlashtirilgan (2-jadval).

2-jadval. Me'moriy meros obyektlaridagi asosiy muammolarning namoyon bo'lishi

Muammo	Venetsiya	Machu Picchu	Angkor Wat	Samarqand	Kapadokiya
Overtourism	+++	++	+	+	++
Konservatsiya va tijoratlashtirish o'rtasidagi muvozanat	++	++	++	+++	++
Iqlim o'zgarishi ta'siri	+++	++	++	+	+
Mahalliy aholi bilan bog'liq masalalar	+++	+	++	+	+
Moliyalashtirish va boshqaruv qiyinchiliklari	+	++	+++	++	+
Tarixiy qiyofa va vizual yaxlitlikni saqlash masalalari	++	+	+	+++	++

Izoh: +++ — yuqori daraja, ++ — o'rtacha daraja, + — nisbatan past daraja.

Jahonda qo'llanilayotgan yechimlar

Tadqiqot davomida me'moriy merosdan turizmga foydalanish bilan bog'liq muammolarni hal etish bo'yicha jahonda qo'llanilayotgan beshta asosiy yechim yo'nalishi aniqlandi.

Birinchi yechim — tashrifchilar oqimini boshqarish tizimlarini joriy etish. Bu borada Machu Picchu va Venetsiya tajribalari alohida e'tiborga loyiqdir. Peru hukumati 2024-yildan boshlab Machu Picchuda kunlik tashrifchilar sonini oddiy kunlarda 4 500 nafar, gavjum kunlarda esa 5 600 nafar bilan chekladi. Shuningdek, 3 ta asosiy marshrut va 10 ta yo'nalish joriy etildi. Natijada sayyohlar faqat chiptada ko'rsatilgan marshrut bo'ylab harakatlanishi belgilandi.

Venetsiyada esa 2024-yil aprel oyidan boshlab kunlik sayyohlar uchun 5 yevro miqdorida kirish to'lovi joriy etildi. 2025-yilda mazkur tizim 54 kun davomida qo'llanilgan bo'lsa, 2026-yilda uni 60 kunga kengaytirish rejalashtirildi. 3-jadvalda ushbu yechimlarning qo'llanilishi batafsil keltirilgan (3-jadval).



3-jadval. Me'moriy meros obyektlarida tashrifchilar oqimini boshqarish usullari

Obyekt	Boshqaruv usuli	Joriy etilgan yil	Natija
Machu Picchu	Kunlik kvota: 4 500–5 600 nafar, marshrut tizimi, vaqt oralig'i bo'yicha kirish	2024–yil	Sayyohlar oqimi tartibga solingan, 2024–yilda 1,5 mln tashrif qayd etilgan
Venetsiya	5 yevro kirish to'lovi, guruh hajmini 25 kishi bilan cheklash, kruiz kemalari harakatini tartibga solish	2024–yil	2024–yilda 2,4 mln yevro daromad olingan, sayyohlar oqimini boshqarish mexanizmi shakllantirilgan
Angkor Wat	Raqamli chiptalar, narxlarni 1, 3 va 7 kunlik tashriflar bo'yicha farqlash	2023–2024–yillar	2024–yilda tashriflar 28 foizga oshgan, chipta daromadi 47,8 mln AQSh dollariga yetgan
Kapadokiya	Maxsus hududlarni belgilash, gid hamrohligini bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish	—	Sayyohlar oqimi nazorati qisman ta'minlangan
Samarqand	Ochiq kirish tizimi, "Silk Road" loyihasi doirasida turizm infratuzilmasini rivojlantirish	—	Turizm hajmi o'sish tendensiyasiga ega

Ikkinchi yechim — raqamli texnologiyalarni joriy etishdir. Xususan, virtual turlar, kengaytirilgan haqiqat (AR) va virtual haqiqat (VR) texnologiyalaridan foydalanish me'moriy meros obyektlarini zamonaviy usullar orqali targ'ib qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. COVID–19 pandemiyasi davrida ushbu texnologiyalarning ahamiyati yanada ortdi. Natijada ko'plab me'moriy meros obyektlari raqamli platformalar orqali namoyish etila boshlandi. Jumladan, Angkor Wat majmuasida raqamli chiptalar tizimi joriy etilgan bo'lib, bu navbatlarni kamaytirish hamda sayyohlar oqimini samarali boshqarishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Uchinchi yechim — davlat-xususiy sheriklik (PPP) modellaridan foydalanishdir. Me'moriy meros obyektlarini saqlash va ulardan turizm maqsadlarida samarali foydalanishda davlat hamda xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda "Buyuk Ipak yo'li" xalqaro turistik markazi loyihasi davlat-xususiy sheriklik modeli asosida amalga oshirilmoqda. Turkiyada esa me'moriy meros obyektlarini restavratsiya qilish va ularga xizmat ko'rsatish jarayonlarida xususiy sektorning faol ishtiroki kuzatilmoqda.

To'rtinchi yechim — jamoaviy turizm (community-based tourism) modelini rivojlantirishdir. Bu borada Kambodja tajribasi alohida ahamiyatga ega. Angkor Wat atrofidagi mahalliy jamoalar turizm xizmatlarini ko'rsatish jarayoniga keng jalb etilgan bo'lib, bu bir tomondan aholi daromadlarini oshirishga, ikkinchi tomondan esa me'moriy meros obyektlarini muhofaza qilishga ko'maklashmoqda. Saarinen barqaror turizm konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida mahalliy aholi ishtirokini alohida ta'kidlagan [9].

Beshinchi yechim — xalqaro grantlar va loyihalarni keng jalb etishdir. UNESCO, Jahon banki hamda boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan me'moriy meros obyektlarini saqlash va ulardan turizmga samarali foydalanishga qaratilgan loyihalar moliyalashtirilmoqda. O'zbekistonda UNESCO ko'magida Buxoro va Xiva tarixiy markazlarini asrash hamda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Quyidagi 4–jadvalda tanlangan mamlakatlar bo'yicha me'moriy meros turizmining umumiy ko'rsatkichlari umumlashtirilgan (4–jadval).

4-jadval. Tanlangan mamlakatlar bo'yicha me'moriy meros turizmining umumiy ko'rsatkichlari (2024–yil)

Ko'rsatkich	Italiya	Peru	Kambodja	Turkiya	O'zbekiston
UNESCO obyektlari soni	61	13	4	21	7
Xalqaro turistlar soni (mln)	~55	~4,5	~6,7	~56	~7,0
Turizm daromadlari (mlrd AQSh dollari)	~56	~5,5	~3,6	~46	~2,5
Turizmning YaIMdagi ulushi (%)	~13	~8	~7,5	~12	~5
Eng ko'p tashrif buyuriladigan me'moriy obyekt	Venetsiya	Machu Picchu	Angkor Wat	Kapadokiya	Registon
Asosiy muammo	Overtourism	Sig'im cheklovi	Pandemiyadan keyingi tiklanish	Muvozanat masalasi	Modernizatsiya jarayonlari
Asosiy yechim	Kirish to'lovi tizimi	Kvota tizimi	Jamoaviy turizm	PPP modeli	Infratuzilmani rivojlantirish



SWOT–tahlil natijalari

Me'moriy meros obyektlaridan turizm sohasida foydalanish bo'yicha o'tkazilgan SWOT–tahlil natijalari ushbu yo'nalishning kuchli va zaif jihatlari, mavjud imkoniyatlar hamda ehtimoliy tahdidlarini aniqlash imkonini berdi. Tahlil natijalari quyidagi 5–jadvalda keltirilgan.

5-jadval. Me'moriy merosdan turizmda foydalanishning SWOT–tahlili

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
Me'moriy meros obyektlarining noyobligi va tarixiy takrorlanmasligi	Obyektlarning vaqt o'tishi bilan fizik eskirishi va tabiiy zaiflashuvi
Turizmning yuqori iqtisodiy multiplikativ ta'siri	Konservatsiya va turizm faoliyati o'rtasidagi muvozanat masalalari
UNESCO brendi orqali xalqaro miqyosda tan olinishi	Boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish hamda malakali kadrlar salohiyatini oshirishga ehtiyoj mavjud
Madaniy identitet va tarixiy qadriyatlarni mustahkamlash imkoniyati	Turizm daromadlarining mahalliy aholiga yetarli darajada taqsimlanmasligi
Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
Raqamli texnologiyalarni joriy etish (VR, AR, smart tourism)	Iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar ta'siri
Barqaror turizm konsepsiyasini keng tatbiq etish	Haddan tashqari turizm (overtourism) holatlarining kuchayishi
Xalqaro hamkorlik va tajriba almashuvini rivojlantirish	Geosiyosiy jarayonlar va global pandemiyalarning turizmga ta'siri
Eko-, gastro- va etnoturizm kabi yangi turizm yo'nalishlarini rivojlantirish	Tarixiy muhitga mos bo'lmagan qurilishlar va vizual yaxlitlikka ta'sir etuvchi omillar

Natijalarning nazariy kontekstda tahlili

Tadqiqot natijalari me'moriy meros obyektlaridan turizm sohasida foydalanish murakkab, ko'p qirrali va o'zaro bog'liq jarayon ekanligini tasdiqladi. Richards ta'kidlaganidek, madaniy turizm xalqaro turizmning 39 foizdan ortiq qismini tashkil etadi va ushbu yo'nalish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar so'nggi o'n yilliklarda sezilarli darajada kengaygan [11]. Shu bilan birga, me'moriy meros obyektlariga bo'lgan talabning ortib borishi hamda ularning tashish sig'imi o'rtasidagi nomutanosiblik global miqyosdagi dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Natijalar bo'limida aniqlangan oltita asosiy muammo — haddan tashqari turizm (overtourism), konservatsiya va tijoratlashtirish o'rtasidagi muvozanat, iqlim o'zgarishi, mahalliy aholi manfaatlari, moliyalashtirish qiyinchiliklari hamda tarixiy qiyofani saqlash masalalari — o'zaro chambarchas bog'liq ekani tadqiqot davomida yaqqol namoyon bo'ldi. McKercher va du Cros o'zlarining yangilangan tadqiqotida madaniy turizm va merosni boshqarish tizimlarini alohida emas, balki yagona integratsiyalashgan tizim sifatida ko'rib chiqish zarurligini asoslab bergan [12]. Mazkur tadqiqot natijalari ham ushbu ilmiy yondashuvni tasdiqlaydi. Jumladan, Venetsiyada haddan tashqari turizm holati mahalliy aholining boshqa hududlarga ko'chib o'tishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida shaharning ijtimoiy-madaniy muhitini o'zgartirib, me'moriy merosning nomoddiy tarkibiy qismlariga ham ta'sir etmoqda.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasining farqlari

Tadqiqot doirasida tanlangan beshta mamlakat tajribasini qiyosiy tahlil qilish muhim farqlarni aniqlash imkonini berdi. Ushbu farqlar asosan uchta asosiy yo'nalishda namoyon bo'ldi.

Birinchidan, muammolarning xarakteri jihatidan o'ziga xos farqlar kuzatiladi. Rivojlangan mamlakatlarda, jumladan Italiya va Turkiyada, asosiy e'tibor turizm oqimini samarali boshqarish hamda mavjud infratuzilmani optimallashtirishga qaratilgan. 2024–yilda Venetsiyada 5,88 million nafar turist qayd etilgani ushbu yo'nalishda innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zaruratini yanada kuchaytirdi [10]. Rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan Kambodja va O'zbekiston tajribasida esa me'moriy meros obyektlarini saqlash, restavratsiya qilish va turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun moliyaviy resurslar hamda malakali mutaxassislar salohiyatini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Masalan, Angkor Wat 2024–yilda 1,02 million xorijiy tashrifchini qabul qilib, 47,8 million AQSh dollari miqdorida chipta daromadini shakllantirgan bo'lsa-da, obyektzni uzoq muddatli saqlash va konservatsiya qilish bo'yicha qo'shimcha investitsion imkoniyatlarni kengaytirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda [10]. Pedersenning ta'kidlashicha, Jahon merosi obyektlarini samarali boshqarishda uzoq muddatli va barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi [6].

Ikkinchidan, qo'llanilayotgan yechimlar o'rtasida ham sezilarli farqlar mavjud. Rivojlangan mamlakatlar texnologik va moliyaviy vositalardan keng foydalanish imkoniyatiga ega. Venetsiyada joriy etilgan 5 yevrolik kirish to'lovi tizimi turizm oqimini tartibga solishga qaratilgan innovatsion mexanizm sifatida baholanmoqda va



2024–yilda 2,4 million yevro daromad shakllantirdi [10]. Peru hukumati esa Machu Picchuda 3 ta marshrut, 10 ta yo‘nalish hamda kuniga 4 500–5 600 nafar tashrifchini qamrab oluvchi kvota tizimini joriy etdi [10]. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa xalqaro grantlar, donor tashkilotlar va hamkorlik dasturlarining roli yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. ICOMOSning 1999–yildagi Xalqaro madaniy turizm xartiyasida meros obyektlaridan foydalanishda mahalliy kontekstni hisobga olish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish zarurligi alohida qayd etilgan [13].

Uchinchidan, natijalar va rivojlanish dinamikasida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. O‘zbekiston tajribasi bu borada alohida e‘tiborga loyiqdir. 2017–yilda mamlakatga 2,7 million xorijiy turist tashrif buyurgan bo‘lsa, 2023–yilda bu ko‘rsatkich 6,6 millionga, 2024–yilda esa 7 million nafarga yetdi [10]. 2025–yilning noyabr oyiga qadar esa 10,7 million turist qayd etildi va UNWTO tomonidan O‘zbekiston jahonning eng jadal rivojlanayotgan turizm yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etildi [10]. Shuningdek, 90 ta davlat fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy etilgani xalqaro turizm oqimini rag‘batlantirishda muhim omil bo‘ldi. Shu bilan birga, Timothy ta’kidlaganidek, turizmning jadal rivojlanishi boshqaruv tizimlari va muhofaza mexanizmlarini zamonaviy talablar asosida yanada takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi [3].

Barqaror turizm konsepsiyasining ahamiyati

Tadqiqot natijalari barqaror turizm (sustainable tourism) konsepsiyasining me‘moriy meros obyektlaridan foydalanishdagi muhim ahamiyatini tasdiqladi. Saarinen turizmida barqarorlik an‘analarini tahlil qilib, uchta asosiy yondashuvni ajratib ko‘rsatadi: resursga asoslangan (resource-based), faoliyatga asoslangan (activity-based) hamda jamoaga asoslangan (community-based) barqarorlik [9]. O‘tkazilgan SWOT–tahlil natijalari ham me‘moriy meros turizmida ushbu uchala yondashuvni o‘zaro uyg‘un holda qo‘llash muhim ekanligini ko‘rsatdi.

Resursga asoslangan yondashuv doirasida UNESCO o‘zining Jahon merosi Konvensiyasini amalga oshirish bo‘yicha operativ ko‘rsatmalarida obyektlarning “ajoyib universal qiymati” (Outstanding Universal Value) ni saqlash turizmni rivojlantirish bilan uyg‘un holda olib borilishi zarurligini ta’kidlaydi [14]. Shu bois me‘moriy meros obyektlaridan foydalanishda iqtisodiy manfaatlar bilan bir qatorda tarixiy va madaniy qadriyatlarni asrash masalasiga ham ustuvor e‘tibor qaratish muhimdir. Venetsiya tajribasi bu borada muhim misol bo‘lib, shaharda qisqa muddatli ijara obyektlarining ko‘payishi turistik infratuzilma rivojlanishini jadallashtirish bilan birga tarixiy muhit va mahalliy turmush tarzini asrashga qaratilgan yangi yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda [10].

Faoliyatga asoslangan yondashuv esa tashrifchilar oqimini samarali boshqarish orqali amalga oshiriladi. Machu Picchuda joriy etilgan 3 ta asosiy marshrut, 10 ta yo‘nalish va kuniga 3 ta vaqt oralig‘i (06:00–09:00, 09:00–12:00, 12:00–15:00) asosidagi tizim ushbu yondashuvning samarali amaliy namunasi hisoblanadi. Mazkur tizim orqali sayyohlar oqimini tartibga solish hamda obyektning tarixiy muhitini asrash imkoniyatlarini kengaytirmoqda [10]. Richardsning ta’kidlashicha, zamonaviy madaniy turizm sayyohlarni passiv kuzatuvchidan faol ishtirokchiga aylantirish orqali meros obyektlariga tushadigan bosimni kamaytirishga xizmat qiladi [11].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda jahon me‘moriy merosidan turizm sohasida foydalanishning hozirgi holati, mavjud muammolar, qo‘llanilayotgan yechimlar hamda istiqbolli takliflar kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi.

Birinchidan, me‘moriy meros obyektlari jahon turizmining eng muhim resurslaridan biri hisoblanadi. 2024–yil holatiga ko‘ra, UNESCO Jahon merosi ro‘yxatida 170 ta davlatdagi 1248 ta obyekt mavjud bo‘lib, ulardan 972 tasi madaniy meros obyektlariga to‘g‘ri keladi [1]. Xalqaro turizm oqimi 2024–yilda 1,44 milliard tashrifga yetib, pandemiyadan oldingi darajaga yaqinlashdi, 2025–yilda esa 1,52 milliard ko‘rsatkich bilan yangi rekord qayd etildi [10].

Ikkinchidan, me‘moriy merosdan turizmida foydalanish jarayonida oltita asosiy muammo aniqlandi: haddan tashqari turizm, konservatsiya va tijoratlashtirish o‘rtasidagi muvozanat masalasi, iqlim o‘zgarishi, mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olish zarurati, moliyalashtirish qiyinchiliklari hamda tarixiy qiyofani saqlash bilan bog‘liq muammolar. Ushbu masalalar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda turlicha namoyon bo‘lishi aniqlandi.

Uchinchidan, jahonda me‘moriy meros turizmi bilan bog‘liq muammolarni hal etish bo‘yicha turli innovatsion yondashuvlar qo‘llanilmoqda. Jumladan, tashrifchilar oqimini boshqarish tizimlari (Machu Picchu, Venetsiya), raqamli texnologiyalar (Angkor Wat), davlat-xususiy sheriklik modellari (O‘zbekiston va Turkiya), jamoaviy turizm yondashuvi (Kambodja) hamda xalqaro grant va dasturlar samarali vositalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

To‘rtinchidan, me‘moriy meros obyektlaridan turizmida barqaror foydalanishni ta’minlash maqsadida beshta asosiy taklif ishlab chiqildi: tashish sig‘imi tizimini joriy etish, raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash, mahalliy aholini turizm jarayonlariga faol jalb etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda muvozanatli boshqaruv strategiyalarini shakllantirish.



Xulosa qilib aytganda, me'moriy meros obyektlaridan turizmda foydalanish nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki insoniyatning tarixiy va madaniy xotirasini kelajak avlodlarga yetkazish bilan bog'liq muhim mas'uliyatdir. Richards ta'kidlaganidek, madaniy turizm doimiy ravishda rivojlanib borayotgan dinamik soha bo'lib, muntazam ilmiy tadqiqotlar, innovatsion yondashuvlar hamda xalqaro hamkorlikni talab etadi [11]. Aynan barqaror yondashuv asosidagina me'moriy meros obyektlarini asrab-avaylash va ulardan turizm maqsadlarida samarali foydalanish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNESCO. *Convention Concerning the Protection of the World Cultural and Natural Heritage*. – Paris: UNESCO, 1972. – 17 p.
2. ICOMOS. *International Charter for the Conservation and Restoration of Monuments and Sites (The Venice Charter)*. – Venice: ICOMOS, 1964. – 4 p.
3. Timothy, D.J. *Cultural Heritage and Tourism: An Introduction* / D.J. Timothy. – Bristol: Channel View Publications, 2011. – 528 p.
4. McKercher, B. *Cultural Tourism: The Partnership Between Tourism and Cultural Heritage Management* / B. McKercher, H. du Cros. – New York: Routledge, 2002. – 262 p.
5. UNWTO. *Tourism and Culture Synergies*. – Madrid: UNWTO, 2018. – 80 p.
6. Pedersen, A. *Managing Tourism at World Heritage Sites: A Practical Manual for World Heritage Site Managers* / A. Pedersen. – Paris: UNESCO, 2002. – 104 p.
7. Smith, L. *Uses of Heritage* / L. Smith. – London: Routledge, 2006. – 368 p.
8. Aas, C. Stakeholder collaboration and heritage management / C. Aas, A. Ladkin, J. Fletcher // *Annals of Tourism Research*. – 2005. – Vol. 32, No. 1. – P. 28–48.
9. Saarinen, J. Traditions of sustainability in tourism studies / J. Saarinen // *Annals of Tourism Research*. – 2006. – Vol. 33, No. 4. – P. 1121–1140.
10. UNWTO. *International Tourism Highlights, 2023 Edition*. – Madrid: UNWTO, 2023. – 24 p.
11. Richards, G. Cultural tourism: A review of recent research and trends / G. Richards // *Journal of Hospitality and Tourism Management*. – 2018. – Vol. 36. – P. 12–21.
12. Du Cros, H. *Cultural Tourism* / H. Du Cros, B. McKercher. – 2nd ed. – London: Routledge, 2015. – 276 p.
13. ICOMOS. *International Cultural Tourism Charter. Managing Tourism at Places of Heritage Significance*. – Paris: ICOMOS, 1999. – 8 p.
14. UNESCO. *Operational Guidelines for the Implementation of the World Heritage Convention*. – Paris: UNESCO World Heritage Centre, 2021. – 190 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
